

KONSTITUTSIYA – XALQ ERKINLIGI VA ADOLAT POYDEVORI**Mamirova Muxlisa Azizbek qizi****Rahimjonova Saida Baxtiyorjon qizi****Andijon Davlat Pedagogika Instituti****Maktabgacha va maxsus pedagogika fakulteti****Maktabgacha ta'lim yo'nalishi****2-bosqich 201- guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17569488>**

Annotatsiya: Konstitutsiya davlat bilan shaxs o'rtasidagi o'zaro huquqlar va burchlar belgilab olingan o'ziga xos ahdnoma desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Konstitutsiyamizning 19-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. Shu ma'noda Asosiy qomusimizda davlat o'ziga bir qator o'ta muhim majburiyatlarni olganki, unga ko'ra davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Аннотация: Не будет преувеличением сказать, что Конституция – это своего рода договор, определяющий взаимные права и обязанности государства и личности. Ведь статья 19 нашей Конституции устанавливает, что гражданин Республики Узбекистан и государство взаимосвязаны своими правами и обязанностями по отношению друг к другу. В этом смысле в нашем Основном Законе государство взяло на себя ряд чрезвычайно важных обязательств, согласно которым государство выражает волю народа и служит его интересам, обеспечивает права и свободы граждан, закрепленные в Конституции и законах, осуществляет свою деятельность на основе принципов социальной справедливости и законности, стремясь к благополучию человека и общества.

Abstract: It is no exaggeration to say that the Constitution is a kind of treaty that defines the mutual rights and obligations between the state and the individual. Because Article 19 of our Constitution establishes that the citizen of the Republic of Uzbekistan and the state are interconnected by their rights and obligations towards each other. In this sense, in our Basic Law, the state has taken on a number of extremely important obligations, according to which the state expresses the will of the people and serves their interests, the state ensures the rights and freedoms of citizens enshrined in the Constitution and laws, the state carries out its activities based on the principles of social justice and legality, aiming at the well-being of the person and society.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, konstitutsiya, farovon hayot, o'zbek xalqi, fuqarolar erkinligi, adolat poydevori

Ключевые слова: Республика Узбекистан, конституция, благополучная жизнь, узбекский народ, свобода граждан, основы справедливости.

Keywords: Republic of Uzbekistan, constitution, prosperous life, Uzbek people, freedom of citizens, foundation of justice

1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning, davlatimizning dunyodagi mavqei, istiqbolini huquqiy jihatdan mustahkamlangan

va kafolatlagan muhim hujjat bo'ldi. Darhaqiqat, davlat o'z huquqiy hujjati – Konstitutsiyasi bilan dunyo sahniga qadam qo'yadi. Shu jihatdan Asosiy qonunimizning yaratilishi xalqimiz hayotida ulkan tarixiy voqea bo'lishi bilan birga, ulug' maqsadlar sari sobit qadam tashlashida mustahkam huquqiy poydevor bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida qayd etganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy tafakkurining noyob namunasidir. Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligimiz sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi. Bosh qomusimizning muhim g'oyasi, eng avvalo, insonni qadrlashga, uning manfaatlarini muhofazalashga qaratilgan. Bu davlatimiz siyosatida insonparvarlik tamoyili ustuvorligining yaqqol namunasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mustaqillikkacha bo'lgan davrda, ya'ni sobiq tuzumda davlat manfaatlari barcha narsadan ustun qo'yilganini yodga olsak, bugungi maqsad-muddaolarimiz ezguligi, Konstitutsiyamiz esa eng yuksak insoniy qadriyatlar mujassamlashgan xalqchil qomus ekani oydinlashadi.

Yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga endi bir yarim yildan oshdi. Esingizda bo'lsa, davlatimiz rahbari 2023-yil 8-mayda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqotida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum yakunlari haqida gapirar ekan, jumladan, bunday degan edi: **“Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, “inson – jamiyat – davlat”, degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz”!** “Qonun kuchli, ammo ehtiyoj undan ham kuchli”, degan edi Iogann Volfgang Gyote. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yaratilish tarixi mamlakatimiz uchun muhim voqega aylandi. Uning har bir moddasi xalq xohish-irodasini ifoda etdi va bu o'zgarishlar yurtimizda keng ko'lamli islohotlarga yo'l ochadigan chinakam insonparvar siyosatning huquqiy bazasini mustahkamlash ehtiyojidan kelib chiqdi, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Konstitutsiya muhokamalarida millionlab yurtdoshimiz ishtirok etdi, 222 ming 715 ta taklif kiritildi. Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni 128 tadan 155 tagacha oshirildi, normalar esa 275 tadan 434 taga yetkazildi. Bu jarayonda 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Saylovchilarning 90,21 foizi yangi tahrirni qo'llab-quvvatladi. Asosiy qonunimizda e'tirof etilganidek, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar va ularning amalga ta'minlanayotgani tufayli yurtimizda har bir inson o'zini himoyalangan his etadi. Tinch va farovon hayot kechirmoqda. Aholining o'z muammo va tashvishlari bilan davlat organlariga murojaat etishi uchun imkoniyatlar "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da yanada kengaydi. Yangi Konstitutsiyaning Muqaddimasida shunday bayon etiladi: “Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va

qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz" deb bayon qilingan.

Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko'ra Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Ma'lumki, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan hozirgi kunda biz yoshlarga ham juda katta imkoniyatlar berilmoqda. Aynan shu ham Konsitutiya belgilab qo'yildi, ya'ni "Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi".

Konstitutsiyaning yangi tahriri 155 moddadan iborat bo'lib, avvalgi 128 moddaning 65 foizi qayta ko'rib chiqilgan. Bu islohotlarda bir qator prinsipial yangiliklar kiritildi. Jumladan:

- 1-moddada O'zbekiston "suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" sifatida belgilab qo'yildi, bu esa davlatning zamonaviy boshqaruv modelini tanlaganini ko'rsatadi.
- 15-moddada Konstitutsiya bevosita amal qiluvchi hujjat sifatida mustahkamlandi. Endi fuqarolar o'z huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri Konstitutsiyaga tayangan holda himoya qilishi mumkin.
- 19-moddada esa imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanishi va ular ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq bo'lishi shartligi ta'kidlandi.
- 52-moddada o'qituvchilarning jamiyatdagi maqomi va ularning mehnatiga bo'lgan munosabat konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi, bu esa ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamdir.
- 81-82-moddalarda ommaviy axborot vositalari erkinligi, senzuraning taqiqlanishi va jurnalistlar huquqlari konstitutsiyaviy kafolat ostiga olindi. Bu esa axborot sohasida ochiqlik va erkinlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yangi Konstitutsiya – bu xalq irodasi, zamonaviy tamoyillar va huquqiy takomillik uyg'unligida yaratilgan bosh Qonun bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi poydevorga aylandi. Prezidentlik vakolati muddati ilgari 5 yil bo'lgan bo'lsa, endilikda 7 yil etib belgilandi. Bu, bir tomondan, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, ikkinchi

tomondan, uzoq muddatli islohotlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bosh vazir nomzodi esa Prezident tomonidan parlament fraksiyalari bilan maslahatlashuv asosida taklif qilinadi. Bu tartib ijro hokimiyatining parlament bilan kelishuv asosida shakllanishini ta'minlaydi. Parlament tizimida ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Qonunchilik palatasi deputatlari soni o'zgartirilmagan (150 nafar), biroq bu palataga bir qator muhim vakolatlar qo'shildi. Endilikda qonun loyihalari yuzasidan yakuniy qaror qabul qilish, hukumat a'zolarining hisobotlarini tinglash va ularga ishonchsizlik bildirish bo'yicha muhim huquqlar aynan Qonunchilik palatasiga tegishli bo'ldi. Masalan, endi Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish uchun Senatning ovozi talab qilinmaydi — deputatlarning uchdan ikki qismining ovozi kifoya qiladi. Yuqori palata — Senat tarkibida ham tizimli qisqartirishlar amalga oshirildi. Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushirildi. Har bir hududdan 4 nafardan senator saylanadi (ilgari 6 nafardan edi), Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 nafardan 9 nafarga qisqartirildi. Ushbu o'zgarishlar 2024 yilda o'tkazilgan parlament saylovlari davomida amaliyotga joriy etildi. Senat endilikda Prezident taqdimiga binoan korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini, yuqori darajadagi sud mansabdorlarini, Markaziy bank raisini, Hisob palatasi raisini tayinlash, elchilarni lavozimga tayinlash va ularni ozod etish vakolatlariga ega bo'ldi. Konstitutsiya ijtimoiy tenglikni ta'minlash va turli qatlamlar manfaatlarini muvozanatlash orqali jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Unda belgilangan huquqiy kafolatlar ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshiradi. Jumladan:

1. Ta'lim sohasida barcha uchun ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash va yoshlar huquqlarini himoya qilish orqali jamiyatning intellektual salohiyati oshadi.
2. Ijtimoiy himoya tizimi orqali aholining zaif qatlamlariga yordam berish, ularning hayot sifatini yaxshilash davlatning fuqarolarga bo'lgan e'tiborini namoyish etadi.
3. Madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va millatlararo totuvlikni mustahkamlash Konstitutsiyaning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim jihatlaridan biridir.
4. Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun Konstitutsiyaning bozor munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalari muhimdir. Mamlakatda xususiy mulk himoyasining kafolatlanishi, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi va investitsiya muhiti barqarorligi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida Konstitutsiya mazmuniga tayangan holda tadbirkorlikka qulay sharoit yaratish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiya davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ularga nisbatan fuqarolar ishonchini oshirish va ochiq-oshkora boshqaruvni shakllantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Parlament, ijro hokimiyati va sud hokimiyati faoliyatining aniq chegaralarini belgilab berishi boshqaruv jarayonlarini samarali amalga oshirishga imkon yaratadi. Bugungi kunda globallashuv, ijtimoiy hayotning tezkor rivojlanishi va texnologik taraqqiyot sharoitida davlatlarning mustahkam konstitutsiyaga ega bo'lishi ular uchun alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Konstitutsiya davlatning demokratik rivojlanish yo'lini belgilab beradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va jamiyatning har bir a'zosiga o'z huquq va erkinliklarini to'laqonli amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatda farovon hayotni ta'minlash va ijtimoiy tenglikni qaror toptirishda Konstitutsiya muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiya har bir fuqaroning o'z

huquqlarini himoya qilishiga zamin yaratib, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Ayniqsa, qonun ustuvorligi ta'minlangan davlatlarda Konstitutsiya fuqarolarning tinchlik va farovonlikda yashashini kafolatlovchi asosiy huquqiy manba sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada Konstitutsiyaning erkin va farovon hayotni ta'minlashdagi o'rni, uning davlat va jamiyat barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati, shuningdek, inson huquqlarini kafolatlashda tutgan o'rni keng yoritiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2019 yildagi o'zgartirishlar bilan). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2019.
2. Yusupov, A. "Konstitutsiya va uning jamiyatdagi o'rni". Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
3. Akramov, N. "Davlat boshqaruvi va Konstitutsiya". Toshkent: O'zbekiston yuridik akademiyasi, 2018
4. Konstitutsiyaviy islohotlar va ularning dolzarbligi" — O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA) maqolalari. <https://uza.uz>
5. "Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlarining mustahkam kafolati"
6. . A.Rahimov - "Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining kafolati" "Xalq so'zi" - 2021 yil